DIPLOMATIK MULOQOTDA MILLIY TILNING STRATEGIK AHAMIYATI VA MADANIY MEROSNING O‘RNI (DIPLOMATIK MULOQOTDA MILLIY TILNING STRATEGIK AHAMIYATI: YUMSHOQ KUCH VA MADANIY DIPLOMATIYA KONTEKSTIDA)

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i08.017

Mexribon Abduraxmanova
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada diplomatik muloqotda milliy tilning strategik ahamiyati lingvistik kapital va yumshoq kuch nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Diplomatik diskursda paremiologik birliklar, frazeologik birliklar hamda mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanishning pragmatik imkoniyatlari yoritilib, ularning milliy qadriyatlarni ifodalash, nutqning ta’sirchanligini oshirish va davlatning ijobiy xalqaro qiyofasini shakllantirishdagi o‘rni asoslanadi. Shuningdek, bo‘lajak diplomatlarni tayyorlash jarayonida pragmalingvistika va lingvomadaniy yondashuvlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish zarurati hamda o‘zbek tilini diplomatik diskursga yo‘naltirilgan holda o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: diplomatik diskurs, milliy til, lingvistik kapital, yumshoq kuch, madaniy diplomatiya, paremiologik birliklar, frazeologik birliklar, mumtoz adabiyot, lingvomadaniyat, diplomatik muloqot

STRATEGIC IMPORTANCE OF NATIONAL LANGUAGE AND THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE IN DIPLOMATIC DIALOGUE (STRATEGIC IMPORTANCE OF NATIONAL LANGUAGE IN DIPLOMATIC DIALOGUE: IN THE CONTEXT OF SOFT POWER AND CULTURAL DIPLOMACY)

Mekhribon Abdurakhmanova
University of World Economy and Diplomacy

Abstract: This article examines the strategic significance of the national language in diplomatic communication through the theoretical frameworks of linguistic capital and soft power. It analyzes the pragmatic functions of paremiological units, phraseological expressions, and examples of classical literature in diplomatic discourse, highlighting their role in expressing national values, enhancing the persuasive impact of diplomatic speech, and strengthening the country’s positive

(cc) BY

international image. The article also substantiates the need to integrate pragmalinguistic and linguocultural approaches into the training of future diplomats and discusses methodological approaches to teaching the Uzbek language with a focus on diplomatic discourse.

Keywords: diplomatic discourse, national language, linguistic capital, soft power, cultural diplomacy, paremiological units, phraseological units, classical literature, linguoculture, diplomatic communication

Til jamiyatda nafaqat muloqot vositasi, balki ramziy kapital va ijtimoiy nufuz manbai sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, tilni mukammal egallash insonning jamiyatdagi o‘rni, obro‘si va imkoniyatlari, umuman olganda, ijtimoiy mavqeyini belgilovchi strategik resurs ekanligiga ahamiyat berish zarur, chunki til kompetensiyasi insonning bilim darajasi, madaniy saviyasi va kasbiy salohiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Biroq shu bilan birga ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiruvchi vosita bo‘lishi ham mumkin, chunki barcha insonlar legitim yoki nufuzli til ko‘nikmalarini egallash uchun bir xil imkoniyatlarga ega emas. Strategik resurs sifatida esa til ta’lim olish, ish topish, daromadni oshirish va muhim ijtimoiy aloqalarni shakllantirish kabi maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etuvchi ko‘nikmadir. Demak, "lingvistik kapital" sifatida talqin qilingan tilni mukammal egallash shaxsga ta’lim, kasbiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarda muayyan ustunliklar beradi. Bu esa o‘z o‘rnida butun jamiyat miqyosida tilining nufuzi va mavqeyini ham oshiradi. Masalan, o‘qituvchilar, jurnalistlar, davlat arboblari, diplomatlar tildan mukammal darajada og‘zaki va yozma muloqotda foydalanishi bu tilning jamiyatda “toza va nufuzli” shaklining keng tarqalishiga zamin yaratadi. Natijada o‘quvchilar maktabdan boshlab to‘g‘ri yozish va ravon gapirishga o‘rganadi, ommaviy axborot vositalari esa til me’yorlarini ommalashtiradi. Bu jarayon asta-sekin davlat tilining rasmiy, ilmiy va kundalik muloqotida barqaror qo‘llanilishiga olib keladi. Lingvistik kapitalning jamiyatda keng tarqalishi davlat tilining ramziy nufuzini kuchaytiradi. Natijada til nafaqat qonuniy rasmiy maqomga ega bo‘libgina qolmay, yuqori saviyada muloqot vositasiga aylanadi, bu esa tilning jamiyatni birlashtirish va ijtimoiy yaxlitlikni ta’minlashdagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Jumladan, Xitoy o‘z tilini strategik va ramziy vosita sifatida “Konfutsiy instituti” markazlari orqali targ‘ib qilib, ta’limiy hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, Xitoyning yumshoq kuch salohiyatini ham kengaytirmoqda. Shu kabi til siyosati boshqa davlatlarda ham kuzatiladi, masalan, Fransiya “Fransuz alyansi” tarmog‘i orqali fransuz tili va madaniyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qiladi, Germaniya “Gyote instituti” orqali nemis tilining nufuzini oshirishga intiladi, Buyuk Britaniya esa “Britaniya Kengashi” faoliyati orqali ingliz tilining global miqyosda muloqotda qo‘llanishini mustahkamlab

(cc) BY

bormoqda. Ushbu misollar til siyosatining nafaqat ta’limiy, balki madaniy va geosiyosiy ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Demak, bugungi sharoitda til oddiy muloqot vositasi emas, balki davlatning geosiyosiy va strategik resursi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, u lingvistik (ramziy) kapital sifatida davlatning yumshoq kuch salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tilni faqat lingvistik hodisa sifatidagina emas, balki strategik kommunikatsiya, madaniy diplomatiya va tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda. Davlatning o‘z milliy tili nufuzini xalqaro maydonda mustahkamlashi uning siyosiy, madaniy va iqtisodiy manfaatlarini ilgari surishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatning xalqaro imijini shakllantirish, mamlakat haqidagi ijobiy tasavvurlarni mustahkamlash hamda milliy manfaatlarni ilgari surishda axborot siyosati bilan bir qatorda til siyosati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til xalqaro va milliy maydonda davlat hamda uning vakillarining muhim ramziy resurslaridan biri hisoblanadi.

Diplomatik muloqot davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni amalga oshirishning muhim kommunikativ mexanizmidir. Ushbu muloqotning samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llanilayotgan til birligining to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, kommunikativ maqsadga muvofiqligiga, aniqrog‘i, til birliklarining pragmatik salohiyati yoki imkoniyatiga bog‘liqdir. Til birligining haqiqiy qiymati uning lug‘aviy ma’nosi bilangina belgilanmaydi, balki muayyan kommunikativ vaziyatda qanday maqsadni amalga oshirishi va tinglovchiga qanday ta’sir ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan sintaktik yoki kommunikativ birlik muloqotda ko‘zlangan maqsadni ifodalay olmasligi mumkin. Shu sababli diplomatik muloqotda til birliklarining qiymati ularning kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanishi bilan baholanadi. Chunki u nafaqat axborot uzatish vositasi, balki davlatning siyosiy pozitsiyasi, madaniy qadriyatlari va milliy o‘zligini aniq ifodalovchi muhim kommunikativ resursdir. Shu bois diplomatik diskursning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik, pragmalingvistika hamda xalqaro munosabatlar kesishmasidagi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Zero, til birligining kommunikativ vaziyatda qanday maqsadda qo‘llanishi, tinglovchiga qanday ta’sir ko‘rsatishi va qanday ma’no nozikliklarini ifodalashini anglash uning pragmatik imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga yordam beradi. Masalan, murojaat shakli (undalma)ni nutqda o‘rinli ishlatish orqali suhbatdoshga nisbatan hurmat, yaqinlik yoki rasmiylik kabi pragmatik imkoniyatlarni ifodalash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tilni mukammal egallash shaxsning kasbiy salohiyati va ijtimoiy mavqeyini belgilovchi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Til kompetensiyasi insonning bilim darajasi, madaniy saviyasi va kasbiy tayyorgarligi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Ayniqsa, davlat vakillari,

(cc) BY

diplomatlar, siyosatchilar hamda xalqaro tashkilotlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun tilni mukammal bilish va muloqot ko‘nikmasiga ega bo‘lish kasbiy muvaffaqiyatning muhim shartidir. Shu maqsadda diplomatik diskursda til birliklarining asosiy vazifasi axborot uzatish bilangina cheklanmay, muzokara olib borish, ishonchni mustahkamlash, murosaga erishish hamda davlat manfaatlarini aniq ifodalashda pragmatik imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish orqali samarali muloqotni ta’minlashdir. Shunday ekan diplomatik nutqda qo‘llaniladigan har bir til birligi muayyan pragmatik vazifani bajarishini his eta bilish zarur. Misol uchun, "*Biz barcha masalalarni konstruktiv muloqot orqali hal etishga tayyormiz*." ushbu sintaktik birlik orqali axborot berish bilan birga undan-da muhimroq maqsad yetkazildi, ya’ni muzokaraga ochiqlik ifodalandi, hamkorlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik yoki tushunmovchilik yumshatildi, hamkorlikka chaqirildi, do‘stona munosabatlarga xayrixohlik kayfiyati ifodalandi va hokazo. Tilni mukammal egallashda mana shunday yashirin kommunikativ maqsadlarni o‘rganish pragmatik ko‘nikmalarni shakllantiradi, bu esa diplomatik muloqotning samaradorligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Diplomatik muloqotda tilning kommunikativ imkoniyatlari milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma’naviy merosi uning tilida, ayniqsa, maqollar, matallar, frazeologik birliklar va badiiy obrazlar tizimida o‘z ifodasini topadi. Ana shu birliklardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshirish bilan bir qatorda, davlatning madaniy qiyofasini ham namoyon etadi hamda diplomatik diskursda murosaga erishish, ishonchni mustahkamlash va muloqot samaradorligini oshirishni ta’minlovchi pragmatik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, madaniy diplomatiyaning asosiy maqsadi xalqaro hamjamiyatda mamlakat haqidagi ijobiy tasavvurni shakllantirishdir. Bu jarayonda til asosiy vosita bo‘lsa, milliy madaniyat uning mazmunini belgilovchi semantik asos vazifasini bajaradi. Natijada diplomat nutqi siyosiy axborot bilan bir qatorda madaniy qadriyatlarni ham uzatadi. Shu jihatdan qaralganda, diplomatik diskursda milliy adabiyot namunalaridan, tarixiy shaxslarning hikmatli so‘zlaridan, maqol va matallardan foydalanish nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi, ixcham va obrazli ifodalar katta hajmdagi axborotni uzatish imkonini beradi.

Diplomatik nutqda milliy qadriyatlarning aks etishi mamlakatning xalqaro imijini shakllantirishni ta’minlaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi boy tarixiy va madaniy merosga ega davlat uchun milliy adabiyot, folklor va ma’naviy qadriyatlar diplomatik kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalqining nodir paremiologik birliklari, jumladan, xalq maqol va matallari diplomatik nutqni mazmunan boyituvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Ular milliy madaniyatni namoyon etibgina qolmay, shu bilan birga xalqaro auditoriya uchun umuminsoniy

(cc) BY

qadriyatlarni ifodalashda aniqlik va lo‘ndalikni ta’minlovchi kuchli ta’sirga ega vositadir.

Demak, diplomatik diskursda milliy madaniy merosdan foydalanish kommunikativ strategiya hisoblanadi. Bunday yondashuv diplomatik nutqning ta’sirchanligini oshirish, madaniyatlararo ishonchni mustahkamlash hamda davlatning yumshoq kuch salohiyatini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar va aforizmlar nutq ishtirokchilarining umumiy madaniy bilimlariga tayanadi va qisqa shaklda keng mazmunni ifodalash imkonini beradi. Natijada ular muloqotning ekspressiv bo‘yog‘ini kuchaytirish bilan birga, muloqot maqsadiga tez va samarali erishishga xizmat qiladi. Masalan, "Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar“ maqoli bir semantik ma’no ifodalagani (shirinso‘z bilan eng qaysar yoki g‘azabli odamni ham ko‘ndirish yoki yumshatish mumkin) bilan bir qatorda murosaga chaqirish, keskinlikni yumshatish, muloqotga chorlash, imkon qadar tinchlik yo‘li bilan iliq munosabat shakllantirish kabi muayyan pragmatik vazifani ham bajaradi, Diplomatik nutqda maqollardan foydalanish tinglovchiga tayyor xulosa berish emas, balki g‘oyani obrazli va bilvosita ifodalash orqali ko‘pincha murosa, hamkorlik, tinchlik, ishonch va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ta’kidlash vositasidir. Diplomatik muloqotda bilvosita ifoda usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki diplomatik muloqotning asosiy tamoyillaridan biri fikrni keskin qarama-qarshiliksiz, ehtiyotkorlik bilan hurmat ruhida ifodalashdir. Maqollar ana shu kommunikativ strategiyani ifodalovchi tabiiy til vositalaridan biridir.

Yana misollarga murojaat qilaylik: O‘zbek xalq maqollarida chuqur hayotiy tajriba va insonparvarlik g‘oyalari mujassam. *“Yaxshi so‘z - jon ozig‘i”, “Birlikda tiriklik bor” “Bir kun urush bo‘lgan uydan 40 kun baraka ko‘tarilar”, “Qo‘shning tinch - sen tinch”, “Tinchlik - farovonlik yo‘ldoshi”, “Urushning boshi o‘yin , oxiri - o‘lim”, “Dunyo yorug‘ bo‘lsin desang, uyingda chiroq yoq”, “ ko‘p tikilsa, tog‘ ham qulaydi” “Yarab turar deb tom solma”, “Andishaning otini qo‘rqoq qo‘yma”* kabi maqollardan foydalanish nutq ta’sirchanligini oshirish vositasigina emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qisqa, ammo mazmunan chuqur baho berishning samarali usulidir. Chunki birgina maqol orqali katta tarixiy tajriba, xalqona falsafa va umumlashgan xulosa ifodalanadi. Shu bois diplomat uchun maqollar pragmatik jihatdan kuchli “semantik kod” ya’ni, konseptual ma’noni ham ifodalaydi. Masalan, “*tinchlik bo‘lsa, hayot yaxshi bo‘ladi*” degan ma’noni anglatgan “*Tinchlik - farovonlik yo‘ldoshi*” paremiologik birligi diplomat nutqida “*urush va beqarorlik har qanday taraqqiyotni to‘xtatadi*”, degan katta falsafiy xulosani, qolaversa, butun bir davlatning siyosiy yoki axloqiy pozitsiyasini aniq va lo‘nda ifodalab bera oladi. Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, bo‘lajak diplomatlar tayyorlash jarayonida o‘zbek tilini diplomatik diskurs asosida o‘qitish tizimini takomillashtirish, bunda madaniy va pragmatik kompetensiyaga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu

(cc) BY

bilan birga diplomatik uchrashuv va xalqaro forumlarda ulardan o‘rinli foydalanish nutqning tabiiyligini oshirib, auditoriyada iliq taassurot uyg‘otadi. Albatta, paremiologik birliklardan foydalanishda auditoriyaning madaniy zehniyati va til idrok etish salohiyati ham hisobga olinishi zarur. Xalqaro auditoriya uchun notanish bo‘lgan maqollarni bevosita tarjima qilish har doim ham kutilgan pragmatik ta’sirni bermasligi mumkin. Shu sababli diplomat maqolning mazmunini izohlash yoki xalqaro auditoriyaga tushunarli muqobilidan foydalanishi maqsadga muvofiq.

Diplomatik diskursni boyitishda o‘zbek mumtoz adabiyoti ham muhim manba hisoblanadi. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, kabi mutafakkirlarning hikmatli fikrlari umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning asarlarida insonparvarlik, adolat, ilm-ma’rifat, do‘stlik va bag‘rikenglik g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lib, mazkur g‘oyalar bugungi diplomatik muloqot uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida insonni ulug‘lash, adolatni qaror toptirish va o‘zaro hurmat tamoyillari markaziy o‘rin tutadi. Shu jihatdan Navoiy hikmatlaridan (masalan, “*Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*”) diplomatik nutqda foydalanish milliy adabiy merosni targ‘ib qilish va mamlakatning madaniy jozibadorligini oshirish bilan birga, fikrni bilvosita, muloyim va ta’sirchan ifodalashga yordam beradi, muayyan g‘oyani tarixiy va madaniy dalil bilan mustahkamlaydi, xalqning milliy o‘zligi va dunyoqarashini namoyon etadi hamda tinglovchiga hissiy va intellektual ta’sir ko‘rsatadi. Demak, diplomatik diskursda paremiologik birliklar va mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanish muhim, bu uning pragmatik strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak diplomatlarni tayyorlash jarayonida milliy paremiologiya va adabiy meros asosida kommunikativ-pragmatik kompetensiyani shakllantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida diplomatik diskursga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Zamonaviy diplomat uchun grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq tuzishning o‘zi yetarli emas. U milliy madaniy kodlar, paremiologik birliklar, mumtoz adabiyot namunalari hamda til birliklarining pragmatik imkoniyatlaridan vaziyatga mos va maqsadli foydalana olishi zarur.

Ayni paytda o‘zbek tilini xorijiy auditoriyaga va bo‘lajak diplomatlarga o‘qitish metodikasida pragmalingvistika, diplomatik diskurs, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda milliy-madaniy birliklardan foydalanishga oid tizimli o‘quv-metodik yondashuvlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarda asosiy e’tibor ko‘proq til tizimi va grammatik me’yorlarni o‘rgatishga qaratilib, diplomatik nutqning pragmatik va lingvomadaniy jihatlarini yoritish qoniqarli darajada emas.

(cc) BY

Shu ma’noda bo‘lajak diplomatlarning pragmatik va lingvomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy topshiriqlar tizimini takomillashtirish kerak. Buning uchun diplomatik diskursga ixtisoslashtirilgan o‘zbek tilidan zamonaviy darsliklar yaratish zarurati mavjud. Paremiologik birliklarni kommunikativ-pragmatik tahlil qilish , milliy realiyalarni sharhlash, mumtoz adabiyot namunalaridagi hikmatlarni diplomatik kontekstda talqin etish, diplomatik diskursni o‘qitish metodikasining muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Ayniqsa, pragmatik ma’nolarni aniqlash hamda ularni nutqiy vaziyatni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik ishlanmalar yaratilishi zarur. Masalan, “*Deraza ochiq ekan”* sintaktik birligi orqali semantik jihatdan birgina xabar (ma’lumot) berildi. Lekin pragmatik jihatdan *“derazani yopish mumkinmi”, “derazani yopsak yaxshi bo‘lardi”, “xona biroz salqin yoki sovuq”, “tashqaridagi shovqin suhbatimizga biroz xalaqit beryapti”* kabi iltimos, e’tiroz, taklif ma’nolarini ifodalash mumkin. Mazkur misolda o‘rganuvchi gapni shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilmasdan, muloqot vaziyati va so‘zlovchining maqsadidan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan pragmatik ma’nolarni ham tahlil qila olishi kerak. Shu ma’noda o‘zbek tilining diplomatik diskurs korpusini yaratish va uni lingvistik hamda pragmatik jihatdan tadqiq etish kabi yo‘nalishlarda ilmiy-metodik ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mana shu yo‘nalishdagi amaliy tadqiqot natijalari diplomatik diskursni o‘rganishning lingvistik va lingvodidaktik asoslarini boyitishga, shuningdek, o‘zbek tilini diplomatik faoliyatga yo‘naltirilgan holda o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, diplomatik diskursni lingvistik, pragmalingvistik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida tadqiq etish hamda ushbu yondashuvlarni bo‘lajak diplomatlarni tayyorlash tizimiga integratsiya qilish o‘zbek tilining xalqaro muloqotdagi nufuzini oshirishning muhim ilmiy-amaliy shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Богданов Сергей Игоревич, Марусенко Михаил Александрович, Марусенко Наталия Михайловна. Языковой капитал в культурном и образовательном капитале. Социолингвистика, 2020., (2 (2)), 8-20.

2. Алпатов Владимир М.. "Языковая политика и родной язык" Социолингвистика, no. 3 (3), 2020, pp. 114-124.

3. Nye, Joseph S.. Soft Power: The Means to Success in World Politics. Public Affairs. 2004.

4. Кучкарова Ж.А., Джусупов М. Роль и примеры паремиологических единиц в узбекском, английском, русском и казахском языках // Universum: филология и искусствоведение : электрон. научн. журн. 2021. 5(83). URL:

(cc) BY

https://7universum.com/ru/philology/archive/item/11603 (дата обращения: 27.07.2026).

5. Терентий Ливиу Михайлович Дипломатический дискурс как особая форма политической коммуникации // Вопросы когнитивной лингвистики.2010.№1.URL:https://cyberleninka.ru/article/n/diplomaticheskiy-diskurs-kak-osobaya-forma-politicheskoy-kommunikatsii

6. П. Бурдьё. О производстве и воспроизводстве легитимного языка. Отечественные записки. 2005. № 2. URL:https://magazines.gorky.media/oz/2005/2/o-proizvodstve-i-vosproizvodstve-legitimnogo-yazyka.html

7. Попкова Екатерина Михайловна, Палагина Оксана Игоревна Дипломатический дискурс в современной парадигме подходов к преподаванию иностранных языков // Казанский лингвистический журнал. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/diplomaticheskiy-diskurs-v-sovremennoy-paradigme-podhodov-k-prepodavaniyu-inostrannyh-yazykov (дата обращения: 27.07.2026).

8. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик. Тошкент: “Фан”, 1987

(cc) BY